

## XORIJLIKLARGA O'ZBEK TILI TIBBIY LEKSIKASINI O'RGATISHGA OID LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR

Zuxra Israilova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti tayanch doktranti

### Annotatsiya

Ushbu maqola xorijliklarga o'zbek tili tibbiy leksikasini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar va metodlarni tahlil qiladi. Maqolada o'zbek tili tibbiy leksikasining ahamiyati va uning xorijiy o'rganuvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun kerakli metodologik yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Tibbiy leksika nafaqat umumiy so'zlar va atamalarni, balki turli hududiy shevalarni ham o'z ichiga oladi. Xususan, Toshkent, Samarqand, Farg'ona hududlaridagi farqlarni o'rganish o'quv jarayonini samarali qilishda muhimdir.

Maqolada lingvomadaniy yondashuvlarning tibbiy terminologiyani o'rgatishda ahamiyati ta'kidlanadi. Hududiy shevalardagi tibbiy atamalar, masalan, adabiy tildagi "shifokor" so'zi Farg'ona va Toshkentda "do'xtir" yoki "tabib" shaklida ishlatilishi, tilni o'zlashtirishda va tibbiy amaliyotni to'g'ri tushunishda o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, maqolada interaktiv va amaliy yondashuvlar, masalan, onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual simulyatsiyalar orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu metodlar xorijiy talabalar uchun tibbiy terminlarni o'rganishni osonlashtiradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi xorijiy talabalarga o'zbek tibbiy leksikasini o'rgatish jarayonida hududiy shevalar va lingvomadaniy yondashuvlarni hisobga olishni o'rganishdir. Ushbu ilmiy yondashuvlar tibbiy ta'lim sifatini yaxshilash va xalqaro miqyosda tibbiy xizmatni samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, tibbiy leksika, lingvomadaniy yondashuv, hududiy shevalar, tibbiy terminologiya, interaktiv yondashuvlar, onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual simulyatsiyalar, tibbiy ta'lim.

## LINGUOCULTURAL APPROACHES TO TEACHING THE MEDICAL LEXICON OF UZBEK LANGUAGE TO FOREIGN LEARNERS

## Abstract

This article analyzes modern approaches and methods for teaching the medical lexicon of the Uzbek language to foreign learners. The article discusses the importance of the Uzbek medical lexicon and the necessary methodological approaches for its assimilation by foreign learners. The medical lexicon includes not only general words and terms but also various regional dialects. In particular, studying the differences in medical terminology in the Tashkent, Samarkand, and Fergana regions is essential for enhancing the efficiency of the learning process. The article emphasizes the importance of linguocultural approaches in teaching medical terminology. Regional variations in medical terms, such as the word “doctor” in standard Uzbek, being used as “do‘xtir” or “tabib” in Fergana and Tashkent, can create specific difficulties in language acquisition and the correct understanding of medical practices. Additionally, the article highlights the importance of interactive and practical approaches, such as online platforms, mobile applications, and virtual simulations, to enhance the efficiency of the learning process. These methods facilitate the learning of medical terminology for foreign students. The primary aim of the research is to study the integration of regional dialects and linguocultural approaches into the teaching process of the Uzbek medical lexicon for foreign students. These scientific approaches will improve the quality of medical education and contribute to the effective organization of medical services internationally.

**Key words:** Uzbek language, medical lexicon, linguocultural approach, regional dialects, medical terminology, interactive approaches, online platforms, mobile applications, virtual simulations, medical education.

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ МЕДИЦИНСКОЙ ЛЕКСИКЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА ИНОСТРАННЫХ ОБУЧАЮЩИХСЯ

**Аннотация** Статья анализирует современные подходы и методы обучения медицинской лексике узбекского языка иностранных обучающихся. В статье рассматривается важность медицинской лексики узбекского языка и необходимые методологические подходы для её усвоения иностранными студентами. Медицинская лексика включает не только общие слова и термины, но и различные региональные диалекты. В частности, изучение различий в медицинской терминологии в Ташкенте, Самарканде и Фергане имеет большое значение для повышения эффективности учебного процесса. В статье подчеркивается важность лингвокультурных подходов при обучении медицинской терминологии. Региональные различия в медицинских терминах, например, слово «врач» в литературном узбекском языке, употребляемое как «доктор» или «табиб» в Фергане и Ташкенте, могут вызвать специфические трудности в усвоении языка и правильном понимании медицинской практики. Кроме того, в статье акцентируется внимание на значении интерактивных и практических методов, таких как онлайн-

платформы, мобильные приложения и виртуальные симуляции, для повышения эффективности учебного процесса. Эти методы облегчают изучение медицинской терминологии для иностранных студентов. Основная цель исследования — изучить интеграцию региональных диалектов и лингвокультурных подходов в процесс обучения медицинской лексике узбекского языка иностранных студентов. Эти научные подходы помогут улучшить качество медицинского образования и способствовать эффективной организации медицинского обслуживания на международном уровне.

**Ключевые слова:** узбекский язык, медицинская лексика, лингвокультурный подход, региональные диалекты, медицинская терминология, интерактивные подходы, онлайн платформы, мобильные приложения, виртуальные симуляции, медицинское образование.

### Kirish

O'zbek tili xorijliklar uchun nafaqat milliy madaniyatni, balki sog'liqni saqlash tizimida o'zaro muloqot vositasini ham ta'minlovchi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'zbekistonning sog'liqni saqlash tizimi globallashib, ayniqsa tibbiy xizmatlar eksportida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. 2023-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonga yiliga 1,5 milliondan ortiq xorijiy fuqarolar keladi. Bu esa xorijiy fuqarolarni tibbiy xizmatlardan foydalanish yoki tibbiy ta'lim olishga undaydi. Shuningdek, Toshkent tibbiyot akademiyasida bugungi kunda mingdan ortiq xorijiy talaba tahsil olmoqda, ular markaziy Osiyo va MDH davlatlari fuqarolaridan tashqari, Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Koreyadan kelgan xorijliklarni tashkil qiladi va yil sayin ularning soni oshib bormoqda. Ushbu fakt xorijlik talabalarga ingliz tilidan foydalanish orqali o'zbek tilini o'rganish ehtiyojini yaratadi, shu bilan birga o'zbek tibbiy leksikasini o'rgatishning muhimligini tasdiqlaydi.

**Tadqiqot maqsadi:** O'zbek tibbiy leksikasini xorijliklarga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish va samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlash taklif etiladi.

### 1. Adabiyotlar sharhi:

|  | Adabiyot<br>muallifi           | Asar nomi                                                  | Y<br>ili | Izoh                                                                                                                  |
|--|--------------------------------|------------------------------------------------------------|----------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|  | Karimov<br>A., Sharipova<br>D. | O'zbek tibbiy<br>terminologiyasini o'qitish<br>texnikalari | 2<br>023 | Ushbu kitobda o'zbek tibbiy<br>terminologiyasini o'rgatishda qo'llaniladigan<br>turli metod va texnikalar yoritilgan. |

|  | <b>Adabiyot muallifi</b> | <b>Asar nomi</b>                              | <b>Y ili</b> | <b>Izoh</b>                                                                                                                |
|--|--------------------------|-----------------------------------------------|--------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|  | Matlubov Sh.             | Lingvomadaniy yondashuv: Nazariya va amaliyot | 2022         | Asar lingvomadaniy yondashuvlar va uning ta'lim jarayoniga qo'llanilishini chuqur tahlil qiladi.                           |
|  | Alimova G.               | Onlayn texnologiyalar yordamida o'qitish      | 2021         | Ushbu ilmiy maqola onlayn o'qitishning zamonaviy metodikalarni o'z ichiga olgan qirralarini ko'rib chiqadi.                |
|  | Yusupov N.               | Interaktiv metodlardan foydalanish            | 2020         | Ushbu kitob interaktiv metodlarni o'rganish va ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. |
|  | Rustamova Z.             | Lingvistik va madaniy uyg'unlik               | 2021         | Asar, til va madaniyatning uyg'unligini ta'lim jarayonida qanday hisobga olish zarurligini o'rganadi.                      |

## 2. Metodologiya

Metodologiyada taklif qilinayotgan yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Amaliy mashg'ulotlar:** Mahalliy shifoxonalarda xorijliklar uchun muloqot mashg'ulotlari o'tkazishni rejalashtirish lozim. Bu mashg'ulotlar orqali tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida tez-tez uchraydigan tibbiy atama va jumalarni o'rgatish maqsadga muvofiq. Amaliy mashg'ulotlar turli vaziyatlarda xorijiy bemorlarning o'zbek shifokorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishini osonlashtirish uchun foydali bo'ladi. Masalan, "ta'sirlanish belgilari" yoki "shikoyat" atamalarini turli shevalarda qanday qo'llashni o'rgatish amaliy topshiriqlarga asoslanishi kerak.

2. **Shevalarni o'rganish:** Hududiy shevalar orasidagi lingvistik farqlarni o'rganish xorijlik o'rganuvchilar uchun tibbiy muloqotni yanada qiziqarli va osonlashtirishi mumkin. Adabiy tilda keng qo'llanadigan "shifokor" ifodasi yoki boshqa hududlarda uchraydigan "do'xtir", "tabib" kabi so'zlarning kontekstdagi qo'llanilishi o'rgatilishi lozim. Shevalar boyligini tushunish orqali xorijiy bemorlar har bir hududning o'ziga xosligini yaxshiroq anglab olishlari kutilmoqda.

3. **Fokus-guruh suhbatlari:** Xorijliklarning turli guruhlari bilan o'tkaziladigan muloqot sessiyalari orqali tibbiy terminologiyani amaliy o'zlashuv darajasi o'lchanishi lozim. Shu orqali ularning tibbiy xizmatdan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelmasligini ta'minlash maqsadida interaktiv yondashuvlar qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, "analiz topshirmoq" iborasining "tahlil testi topshirmoq", "tekshiruvdan o'tmoq" kabi bir qator o'zining alternativ variantlari borligini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq.

4. **Texnologiyalardan foydalanish:** Onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida xorijliklarga tibbiy terminologiyani o'rgatish osonlashishi mumkin. Misol tariqasida, maxsus

tayyorlangan dasturlar orqali O'zbekistonning turli hududiy tibbiy sharoitlariga oid ma'lumotlar taqdim etilishi rejalashtiriladi. Tibbiyotning virtual modellashirish vositalari va audio-vizual qo'llanmalar ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

2023 yilda o'zbek tilini o'rganuvchi xorijlik talabalardan tashkil topgan 30 kishilik guruh tanlab olindi. Guruhning til bilish darajasi A2 bo'lib, ular uchun maxsus audiovizual materiallar yordamida treninglar tashkil etildi. Treningda grammatikani kontekstda berish, amaliy muloqot va madaniy elementlarga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, Toshkent shevasi misolida hududiy shevalarga oid amaliy bilimlar taqdim etildi. Ko'pchilik o'rganuvchilar shevani yangi ma'lumot sifatida qabul qilishdi. Trening davomida adabiy tildagi so'zlar va ularning Toshkent shevasidagi alternativlari, shuningdek, fe'l zamonlari, shaxs-son va egalik qo'shimchalarining shevada qo'llanilishi o'rgatildi. Buning uchun muloqot vositalari, videomateriallar va subtitrlardan foydalanildi. O'rganuvchilarning amaliy muloqotdagi o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi. Shevani faqat ma'lum hududlarda ishlatish lozimligi haqida uslubiy vazifalar bilan izoh berildi. Natijada, og'zaki muloqotda qiyinchilikka duch keladigan aksariyat talabalarning o'zlashtirish darajasi yuqorilangani kuzatildi.

Shu asosda, o'zbek tilini o'qitish davomida muayyan hudud shevalari haqida ma'lumot berilishi o'z o'rnida olib borilsa, til o'rganuvchi xorijliklarning muloqot jarayonida tushunish ko'nikmasi oshishi va muloqotda muammolarga yechim topilishiga erishishimiz mumkin. Xususan, o'zbek tilidagi tibbiy leksikani o'rgatishda ham ba'zi so'zlarning hududiy shevalardagi alternativlari bilan birga o'rgatish samarali natijaga erishishimizda muhim ahamiyatga ega.

**Jadval: Tibbiy xizmat doirasida ba'zi so'zlarning adabiy til va shevalarda qo'llanilishi**

| <b>Tibbiy Atama</b> | <b>Adabiy Tilda Qo'llanilishi</b>                                                         | <b>Shevalarda Qo'llanilishi</b>                                                    | <b>Izoh</b>                                                                                  |
|---------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Bemor</b>        | «Bemor» atamasi adabiy tilda fiziologik yoki ruhiy kasallikka chalingan odamni bildiradi. | Toshkent va Farg'onada «kasal», Samarqandda «xasta», ishlatiladi.                  | Shevalarda «kasal» va «xasta» kabi atamalar an'anaviy, o'ziga xos muloqotda ishlatiladi.     |
| <b>Shifokor</b>     | «Shifokor» so'zi adabiy tilda kasallikni davolovchi malakali shaxsni anglatadi.           | Toshkentda «do'xtir», Farg'onada «tabib», Samarqandda «"duxtur» so'zi ishlatiladi. | «Tabib» so'zi an'anaviy davolovchi sifatida ishlatiladi va Farg'ona hududida keng tarqalgan. |

|                      |                                                                                                                      |                                                                                                                  |                                                                                                                                                                   |
|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Tibbiy yordam</b> | «Tibbiy yordam» — adabiy tilda kasallik va trauma holatida qo'llaniladigan yordamni bildiradi.                       | Shevalarda asosan «perviy pomosh» (ruscha atama) ishlatiladi.                                                    | Shevalarda «perviy pomosh» so'zi rus tilidan kelib chiqqan bo'lib, tibbiy yordam ma'nosida keng qo'llaniladi.                                                     |
| <b>Analiz</b>        | «Analiz» adabiy tilda tibbiy tekshiruv, asosan laboratoriya natijalari, kasalliklarni aniqlash jarayonini anglatadi. | Barcha shevalarda asosan «analiz» ishlatiladi, lekin ba'zan «tekshiruv» yoki «tahlil» atamalari ham ishlatiladi. | Shevalarda «analiz» atamasi umumiy tibbiy termin sifatida qo'llanilsa ham, ayrim hududlarda bu so'zning sinonimlari sifatida «tekshiruv» va «tahlil» ishlatiladi. |

### 3. Natijalar

Taklif etilgan yondashuvlar asosida kutiladigan natijalar:

1. **Lingvomadaniy yondashuvning kutilayotgan samarasi:** Mahalliy madaniyatni hisobga olgan holda o'rgatish xorijliklar uchun samarali bo'ladi. Sheva va dialektlarni tushuntirganda, xorijliklarning tibbiy leksikani kengroq tushunishi va amaliyotda qo'llashi kutilmoqda. Bu jarayon turli shevalarda ishlatiladigan iboralarni o'rgatish orqali xalqaro muloqot samaradorligini oshiradi.

2. **Amaliy mashg'ulotlar natijalari:** Tibbiy muloqotlarni interaktiv mashg'ulotlarda mashq qilish xorijliklarga foyda keltirishi mumkin. Haqiqiy tibbiy amaliyotlarni o'rgatish xorijliklarning real vaziyatlarda leksikani qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi. Shu tariqa o'rganuvchilar maxsus vaziyatlarda xatolar qilishdan saqlanishga yordam oladi.

3. **Shevalarning roli:** Toshkent, Samarqand va boshqa hududlar dialektlaridagi tibbiy atamalarning o'ziga xosliklarini o'rganish orqali xorijliklar bemor yoki shifokor bilan bemalol muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu muloqotda murakkab atamalarni xalq tilida tushuntirish usullari bilan tanishish nazarda tutiladi.

4. **Texnologik vositalar samaradorligi:** Maxsus o'quv platformalari yordamida tibbiy leksika o'rgatilishining samaradorligi ortishi kutiladi. Ko'rgazmali texnikalar xorijlik o'quvchilarga tushunchalarni chuqurroq anglash va eslab qolish imkoniyatini beradi. Interaktiv lug'atlar, ayniqsa mobil ilovalar orqali foydalanish, mustaqil o'qishni qo'llab-quvvatlaydi.

### Munozara

Xorijliklarga o'zbek tibbiy leksikasini o'rgatishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish

juda muhim ahamiyatga ega. Hududiy shevalarning bir-biridan farqlanishi tufayli tibbiy terminlarni tushunishda va ular bilan muloqotda bo'lishda turli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, Toshkent shevasidagi tibbiy atamalar, Samarqand va Farg'ona hududlarida o'zgacha talqin etilishi mumkin, bu esa xorijliklarga ma'lum hududda muloqot qilishda noqulayliklar tug'dirishi ehtimoli mavjud. Bu jarayon esa an'anaviy metodlar bilan o'rgatilgan tibbiy leksikaga qaraganda ko'proq vaqt va resurslar talab qiladi. Shevalarning o'ziga xosligini tushunish, xorijliklarga tibbiy xizmat ko'rsatishda yoki ta'lim jarayonida to'liq muloqotda bo'lish imkoniyatini yaratadi. Mahalliy madaniyatni o'rgatishda bu kabi farqlarga to'g'ri yondashish zarur, chunki til o'rganishda uning madaniy asosi juda muhim o'rin tutadi.

Shu bilan birga, texnologik vositalardan foydalanish xorijliklarning o'zbek tilidagi tibbiy leksikani o'rganish jarayonini yanada samarali va qulay qilish imkonini beradi. Onlayn resurslar va mobil ilovalar orqali xorijliklarga tibbiy terminologiyani o'rgatish darajasini oshirish mumkin. Bunday texnologiyalarni foydalanuvchilarning har birining o'rganish sur'atiga moslashtirish muhim, shuning uchun shaxsiylashtirilgan o'quv resurslari ishlab chiqish lozim. Texnologiyalar nafaqat tibbiy atamalarni o'rgatishda yordam beradi, balki mintaqaviy shevalar bilan tanishtirishni ham yaxshilaydi. Bu boshqariladigan tarzda, foydalanuvchi o'rganish jarayonida o'z vaqtida kerakli ma'lumotlarni olishi mumkin. Ammo, bu yo'nalishda ham imkoniyatlar cheklangan. Mahalliy shevalar va tibbiy kontekstlar nuqtai nazaridan ularni to'liq aks ettirish va samarali integratsiya qilish uchun zamonaviy dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

2023 yilda o'zbek tilini o'rganuvchi xorijlik talabalardan tashkil topgan 30 kishilik guruh tanlab olindi. Guruhning til bilish darajasi A2 bo'lib, ular uchun maxsus audiovizual materiallar yordamida treninglar tashkil etildi. Treningda grammatikani kontekstda berish, amaliy muloqot va madaniy elementlarga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, Toshkent shevasi misolida hududiy shevalarga oid amaliy bilimlar taqdim etildi. Ko'pchilik o'rganuvchilar shevani yangi ma'lumot sifatida qabul qilishdi. Trening davomida adabiy tildagi so'zlar va ularning Toshkent shevasidagi alternatalari, shuningdek, fe'l zamonlari, shaxs-son va egalik qo'shimchalarining shevada qo'llanilishi o'rgatildi. Buning uchun muloqot vositalari, videomateriallar va subtitrlardan foydalanildi. O'rganuvchilarning amaliy muloqotdagi o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi. Shevani faqat ma'lum hududlarda ishlatish lozimligi haqida uslubiy vazifalar bilan izoh berildi. Natijada, og'zaki muloqotda qiyinchilikka duch keladigan aksariyat talabalarning o'zlashtirish darajasi yuqorilgani kuzatildi.

### Tavsiyalar

1. **Hududiy shevalar uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish.** Har bir hududda ishlatiladigan tibbiy atamalarning o'ziga xosligini tushunish uchun maxsus kurslar tashkil etish lozim. Xorijliklar o'zlari tushunmaydigan tibbiy iboralar va jumalarni yanada osonroq tushunishlari uchun texnik vositalar orqali regionallashtirgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish zarur. Bu orqali xorijliklar

O'zbekistonda turli joylarda bimalol muloqot qilishga erishadilar.

2. **Tibbiy mashg'ulotlarni interaktiv resurslar bilan integratsiya qilishni davom ettirish.** Tibbiy muloqotning samarali o'rganilishi uchun talabalar interaktiv metodlardan foydalanib, amaliy mashg'ulotlarni turli sharoitlar bilan birgalikda sinab ko'rishlari muhimdir. Bunday mashg'ulotlarni onlayn platformalar orqali ham amalga oshirish mumkin. Bu, ayniqsa, ilova yoki virtual ta'lim platformalaridagi misollarni boshqarishni osonlashtiradi.

3. **Lingvomadaniy xususiyatlarni o'rgatishga yo'naltirilgan situatsion treninglarni rivojlantirish.** O'zbek tilini o'rganish jarayonida xorijliklarga madaniy yondashuvni kiritish juda zarur. Masalan, xalq tibbiyoti va uning madaniy ta'sirlarini tushuntirishga alohida e'tibor berish, nafaqat tibbiy tushunchalarni, balki turli shevalarni amaliyotda qanday qo'llashni ta'minlashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, tibbiy axborotlarni tezda tushunish va ular bilan samarali ishlashni osonlashtiradi.

4. **Har bir o'quv darajasi uchun maxsus tayyorlangan lug'atlar va yordamchi materiallar ishlab chiqilishi zarur.** Xorijliklarga o'zbek tibbiy leksikasini o'rgatishda atamalarni tushunish darajasiga qarab turli darajadagi lug'atlar va qo'llanmalarni taqdim etish kerak. Bu har bir o'quvchiga ma'lum bir sohadagi terminlarni to'g'ri o'zlashtirishda yordam beradi, shu bilan birga tibbiy atamalarni o'rganish jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklarni kamaytiradi.

### **Xulosa**

Xorijliklarga o'zbek tili tibbiy leksikasini o'rgatish masalasi nafaqat til o'rganish, balki madaniy va hududiy xususiyatlarni tushunish bilan bog'liq jarayondir. O'zbek tilining tibbiy atamalarini o'rganish jarayonida madaniyatning rolini to'g'ri baholash va uni o'rganishda tegishli metodologiyalarni joriy etish juda muhim hisoblanadi. Hududiy shevalar va mahalliy tibbiy an'analarni hisobga olish ona tilimizni xorijliklarga samarali o'rgatishga katta hissa qo'shadi, ular O'zbekistondagi turli hududlarida qiyinchiliksiz muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Innovatsion texnologiyalardan, shu jumladan onlayn resurslar, mobil ilovalar va interaktiv platformalardan foydalanish jarayonni yanada samarali qilishda muhim o'rin tutadi. Biroq, metodologiyalarga qo'shimcha ravishda, talabalarning tibbiy leksikani chuqur o'rganishlari uchun maxsus tibbiy treninglar va kurslar talab etiladi. Bular orqali xorijliklarning amaliy muloqotda bo'lishlari osonlashadi va O'zbekistonda tibbiy xizmat yoki ta'lim olish jarayoni yanada sifatli va samarali bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, xorijliklarga tibbiy leksikani o'rgatishdagi muvaffaqiyatli yondashuvlar madaniyat, hududiy shevalar va texnologiyalarni to'g'ri integratsiya qilishda aks etadi.

---

### **Adabiyotlar**

1. Karimov A., Sharipova D. "O'zbek tibbiy terminologiyasini o'qitish texnikalari" – Toshkent, 2023.

2. Matlubov Sh. "Lingvomadaniy yondashuv: Nazariya va amaliyot" – Samarqand, 2022.
3. Alimova G. "Onlayn texnologiyalar yordamida o'qitish" – Oliy ta'lim, 2021.
4. Yusupov N. "Interaktiv metodlardan foydalanish" – O'quv jarayonlari tajribasi, 2020.
5. Rustamova Z. "Lingvistik va madaniy uyg'unlik" – Til o'rganishda yangi qarashlar, 2021.